

V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar- may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 13 103 410,6 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi minus 689 801,3 mln. so'm yoki 5,6 foizga oshdi.

2022- yil yanvar- may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

mln. so'm

	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	13 103 410,6	105,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	348 805,1	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	12 299 350,1	100,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	457 402,2	3,2 m.
Qurilish	-3 461,2	
Savdo	-1 570,4	-
Tashish va saqlash	912,8	-
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-4 025,7	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	667,5	103,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	12,0	-
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	84,8	115,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 172,6	127,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 060,8	135,1

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 12 299 350,1 mln. so'mga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

– 457 402,2 mln. soʻmga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga – 348 805,1 mln. soʻmga, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish - 4 060,8 mln. soʻmga, Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar – 1 172,6 mln. soʻmga, tashish va saqlash – 912,8 mln. soʻmga, koʻchmas mulk bilan operatsiyalar korxonalariga – 667,5 mln. soʻmga, toʻgʻri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi suv bilan taʼminlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish korxonalariga minus 4 025,7 mln. soʻmga, Qurilish korxonalariga minus 3461,2 mln. soʻmga, savdo korxonalariga minus 1 570,4 toʻgʻri keladi.

2022-yilning yanvar- may oylarini oʻtgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy oʻsishi “Navoiy KMK” AJ (11 816 916,8 mln. soʻm), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ (450 372 mln. soʻm), "Navoiyuran" Davlat korxonasi (343 696 mln. soʻm) , “Oʻzkimyosanoat” AJ (218 369 mln. soʻm), tarkibiga kiruvchi korxonalarga toʻgʻri keldi.

2022- yil yanvar- may oylarida foydaning oʻsish surʼati yuqori boʻlgan vazirlik va idoralar

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. soʻm</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>
“Navoiy KMK” DK	11 816 916,8	101,4
“Issiqlik elektr stansiyalar”	450 372	266,8
"Oʻzcharmsanoat" uyushmasi	9 541,2	130,1
“Oʻzkimyosanoat” AJ	217 369,3	299,5
“Oʻzdonmahsulot” AK	1 525,0	149,8
“Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi	381,9	119,6

Foydaning pasayishi “Oʻzbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati – 910,5 mln. soʻm “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati – 3 130,6 mln. soʻm" yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

**2022- yil yanvar- may oylarida foydaning
pasayishi yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar**


	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati	910,5	-
“Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati	3 130,6	-

**2022-yil yanvar- may oylarida hududlar
kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

mln. so'm

	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	13 103 410,6	105,6
Navoiy sh.	12 476 989,5	104,4
Zarafshon sh.	-5 999,2	-
G'ozg'on sh	-	-
Karmana t.	604 839,8	136,8
Konimex t.	468,5	75,1
Qiziltepa t.	15 795,9	133,2
Navbahor t.	10 866	179,2
Nurota t.	-	-
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	450,2	42,9

**2022- yil yanvar- may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari
(2021- yil yanvar- mayga nisbatan, % da)**



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 12 476 989,5 mln. so‘m (jami foydaning 95,2 foiz), Karmana tumani 604 840 mln. so‘m (jami foydaning 4,6 foiz), Qiziltepa tumani 15 796 mln. so‘m (jami foydaning 0,1 foiz), Navbahor tumani 10 866 mln. so‘m (jami foydaning 0,1 foiz)ga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2022- yilning yanvar- may oylarida 8 ta korxonalar 23 200,3 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “O‘zbekneftgaz” AJ, “Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyati vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar- may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar so‘mmasi</i>	
		<i>mln. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	8	23 200,3	100,0
Qurilish	1	5 807,2	25,0
Savdo	2	7 069,8	30,5
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	2	4 040,7	17,4
Tashish va saqlash	2	3 158,5	13,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1	3 124,1	13,5

2022- yil yanvar- may oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
Jami	8	100,0	23 200,3
Navoiy shahar	4	34,8	8 075,3
Zarafshon shahar	2	26,7	6 187,2
Karmana tumani	2	38,5	8 937,8

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾



2022- yil 1- iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 7 997 903,4 mln. soʻmni tashkil qildi, shundan muddati oʻtgan – 147 502,8 mln. soʻm yoki jami qarzdorlikning 1,8 foizi.

Muddati oʻtgan debitor qarzdorlik 2021- yil 1- iyunga nisbatan solishtirganimizda 42,3 foizga kamaygan boʻlsa, jami debitor qarzdorlik oʻtgan yilga nisbatan 13,1 foizga oshgan.

Hududlar boʻyicha koʻrilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 4 307 241,6 mln. soʻm (viloyat boʻyicha jami debitor qarzdorlikning 53,9 foiz), Karmana tumani 3 283 190,9 mln. soʻm (viloyat boʻyicha jami debitor qarzdorlikning 41,1 foiz), Konimex tumaniga 139 909 mln. soʻm (1,7 foiz), Navbahor tumaniga 129 226 mln. soʻm (1,6 foiz), Qiziltepa tumaniga 91 297,4 mln. soʻm (1,1 foiz) toʻgʻri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Xatirch tumani 46 368,0 mln. soʻm (0,6 foiz), Zarafshon shahri 670,3 mln. soʻm (0,01 foiz) ga pastligini koʻrish mumkin.

2022- yil 1- iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha muddati oʻtgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln.soʻm	undan:			Muddati oʻtgan qarzdorlikning ulushi, % da
		xaridor va buyurtmachilar	etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy	
Jami	147 502,8	147 262,2	34,7	64,8	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	122 351,9	122 172,0	-	64,8	83,0
Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash	4863,3	4863,3	-	-	3,3
Qurilish	215,8	214,8	-	-	0,1
Tashish va saqlash	774,4	714,7	34,7	-	0,5
Koʻchmas mulk bilan operatsiyalar	18 073,4	18 073,4	-	-	12,3
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 224,0	1 224,0	-	-	0,8

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xoʻjalik korxonalar, fermer va dehqon xoʻjaliklari, sugʻurta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- iyun holatiga jami debitor qarzdorligi 6 453 622,9 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 80,7 foizini tashkil qildi

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “Navoiy KMK” DK 3 076 355,0 mln. so‘m (47,7 foiz), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 2 379 194,8 mln. so‘m (36,9 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 384292,8 mln. so‘m (6,0 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 362 920,2 mln. so‘m (5,6 foiz).

Debitor qarzdorlik “Navoiyuran” Davlat korxonasi – 3,7 foizga, (238044,0 mln. so‘m), Uzdonmaxsulot” AK – 0,2 foizga (11 551,7 mln. so‘m), “Uzbekneftegaz” AJ – 0,02 foizga (1 264,5 mln. so‘m), kamaygan.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni 2021-yil 1- iyunga nisbatan solishtirganimizda 42,3 foizga kamaygan.

2022- yil 1- iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 5 728 705,7 mln. so‘m, undan muddati o‘tgan – 65 570,7 mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,1 foizni tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikni 2021-yil 1-iyunga nisbatan solishtirganimizda 88,1 foizga kamaygan bo‘lsa, jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 5,5 foizga kamaygan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- iyun holatiga jami kreditor qarzdorligi 4 181 366,2 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 73,0 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o‘tgan – 56 558,9 mln. so‘m yoki mos ravishda 89,6 foizga kamaygan.

2022- yil 1- iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	<i>Jami, mln. so‘m</i>	<i>undan:</i>					<i>Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, % da</i>
		<i>etkazib beruvchilar va pudrat-chilarga</i>	<i>olingan avanslar</i>	<i>davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	<i>mehnatga haq to‘lash</i>	
Jami	65 570,7	65 350,5	220,2	-	-	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	60 080,0	60 080,0	-	-	-	-	91,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	5,1	5,1	-	-	-	-	-
Tashish va saqlash	220,2	-	220,2	-	-	-	0,4
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	5 265,4	5 265,4	-	-	-	-	8,0

2022- yil 1- iyun holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 2 269 197,7 mln. soʻmni tashkil qildi.

Xoʻjalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan kamayishi

	<i>Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi</i>	
	<i>mln. soʻm</i>	<i>debitorga nisbatan, % da</i>
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	1 813 112,8	23,8
“Oʻzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi	164 121,3	34,8
“Uzdonmaxsulot” AK	4 947,4	57,2
Oʻzbekiston Respublikasi yogʻ-moy sanoati korxonalar uyushmasi	564,2	71,9
“Oʻzbekiston Aeroportlari” AJ	26 794,8	73,0
“Navoiy KMK” DK	807 853,2	73,7

Jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 1 813 112,8 mln. soʻmga (23,8 foiz), “Oʻzsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi AJ – 164 121,3 mln. soʻmga (34,8 foiz), “Uzdonmahsulot” AK – 4 947,4 mln. soʻmga (57,2 foiz), Oʻzbekiston Respublikasi yogʻ-moy sanoati korxonalar uyushmasi – 564,2 mln. soʻmga (71,9 foiz), Oʻzbekiston Aeroportlari AJ – 26 794,8 mln. soʻmga (73,0 foiz) “Navoiy KMK” DK - 807 853,2 mln. soʻmga (73,7 foiz).

Hududlar boʻyicha koʻrilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Xatirchi tumani 41 161,9 mln. soʻm (11,2 foiz), Konimex tumani 120 600,2 mln. soʻm (13,8 foiz), Karmana tumani 1 634 352,5 mln. soʻm (50,2 foiz), Qiziltepa tumani 12 749,8 mln. soʻm (86,0 foiz), Navbahor tumani 15 036,4 mln. soʻm (88,4 foiz) va Navoiy shahar 445 985,2 mln. soʻm (89,6 foiz) ga toʻgʻri keldi.